

O'ZBEKISTON VA FINLANDIYA MAKTABLARIDA TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK FANLARIGA QO'YILADIGAN TALABLARNING BIR- BIRIDAN FARQLANISHI

Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika
instituti o'qituvchisi, O'zbekiston*

Annotatsiya: *Bugun har bir ota-ona farzandining ta'lim sifati va shart-sharoiti yuqori maktabda tahsil olishini istaydi. Qolaversa, so'nggi yillarda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarga mos ravishda ta'lim muassasasi ham har tamonlama rivojlangan, qisqacha aytganda, zamonaviy qiyofada bo'lishi lozim. Shu jumladan xalqaro tajribalardan ham o'rganib ko'rdikki har bir davlatning o'ziga hos maktablarning rivoji yo'lida shaxsiy qarashlari mavjud. Ularning dasturlari, rejalari va o'qitilish uslublari ham turlicha. Ularning eng ilg'or va eng samarali yo'llarini aniqlash va yurtimizda tadbiiq etilishi kelajak avlodlarimizning buyuk shaxslar bo'lib yetishib chiqishida muxim ro'l o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *Finlandiya ta'lim sistemasi, maktab, zamonaviy dasturlar, rasm, naqsh, haykal, tasviriy san'at, chizmachilik, arxitektura, chiziq, siluet, rang, ritm, simmetriya, assimetriya, kompozitsiya.*

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshlang'ich maktablar uchun «Finlandiya standartlari» asosida darsliklar ishlab chiqilishini e'lon qilgan edilar va bu qarorni «Finlandiya xalq ta'limi Yevropada va umuman butun dunyoda raqobatbardosh ekani» takidlab o'tgan edilar. Keyinroq Qashqadaryo viloyatini rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan prezident huzuridagi yig'ilishda kelgusi o'quv yilidan boshlab viloyatning 48 ta maktabida Finlandiya ta'lim tizimini tatbiiq etish to'g'risida ko'rsatma berilgan edi. [1]

Finlandiya maktablarida bolalar maktabga 7 yoshdan qabul qilina boshlaydi. Boshlang'ich ta'lim olti yil davom etadi. 7-sinfdan boshlab bolalar o'rta ta'limning uch yil davom etadigan birinchi bosqichiga o'tadi. Boshlang'ich maktabda va o'rta ta'limning birinchi bosqichida barcha bir xil ta'lim olishi kerak. Jumladan: bolalarni, bizning ixtisoslashtirilgan maktablarimizdagi amaliyotdan farqli ravishda, qobiliyatlari va qiziqishlariga qarab ajratish mumkin emas. Boshlang'ich maktabda bolalar bilan faqat bitta o'qituvchi ishlasa, o'rta maktabda har bir fan bo'yicha alohida o'qituvchi dars beradi. [2]

O'zbekiston Respublikasida ham o'quvchilar 7 yoshdan boshlab maktabga bora boshlashadi. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan. [3]

Umumiy o'rta ta'lim (I — XI sinflar) bosqichlari quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (I — IV sinflar);

- tayanch o'rta ta'lim (V — IX sinflar);
- o'rta ta'lim (X — XI sinflar).

Umumiy o'rta ta'lim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga to'ladigan yilda qabul qilinadi.

Boshlang'ich ta'lim ta'lim oluvchilarda umumiy o'rta ta'limni davom ettirish uchun zarur bo'lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko'nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan.

Tayanch o'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilarga bilim, malaka va ko'nikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi.[4]

Tayanch o'rta ta'lim doirasida (VII sinfdan so'ng) ta'lim oluvchilarda kasblar bo'yicha birlamchi bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yo'naltirish bo'yicha choralar amalga oshiriladi.

O'rta ta'lim o'quv dasturiga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'limning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi.

Finlandiya maktablarida o'quv yili 38 hafta, har bir dars 45 daqiqa davom etadi. Bolalar til (ona tili va adabiyot, ikkinchi davlat tili, xorijiy tillar), matematika, tabiiy fanlar va salomatlik haqidagi fan, din va etika, tarix va jamiyatshunoslik, san'at (musiqqa, vizual san'atlar, qo'l hunari), ro'zg'orshunoslik va jismoniy tarbiya, shuningdek, o'z tanlovi bo'yicha boshqa fanlarni o'rganadi. Bundan tashqari, funksional va metakognitiv ko'nikmalar (o'z o'quv jarayonini nazorat qila olish ko'nikmasi) hamda kasb tanlovi bo'yicha maslahatlashuvlar uchun maxsus soatlar ajratiladi. O'quvchiga beriladigan haftalik yuklama, Yevropaning boshqa davlatlari bilan taqqoslaganda, past: 1 va 2-sinflarda minimal yuklama 20 soatni tashkil etadi va katta sinflarda 27 soatgacha ko'payadi (taqqoslash uchun: O'zbekistonda bu yuklama haftasiga 22 soatdan 34 soatgacha yetadi). Maktablarda xotirjamlashtiruvchi muhit hukmron, kiyim bo'yicha talab yo'q, darsliklar va tushlik bepul beriladi, darslar orasidagi uzoq tanaffuslar esa bolalarga o'ynash va dam olish imkonini beradi. [5]

O'zbekistonda esa, ekspertlarning ta'kidlashicha, ta'lim va fanni rivojlantirish strategiyasi iqtidorli bolalar uchun alohida, masalan, o'quvchilar 5 yo 7-sinfdan qabul qilinadigan prezident va ixtisoslashtirilgan maktablar tashkil etishni ko'zda tutadi.

Fanlar kesimida O'zbekiston va Finlandiya davlatlarining bazi bir fanlar yuzasidan qo'yiladigan o'zlashtirish talablari turlicha bo'lib, jumladan tasviriy san'at va chizmachilik fanlarini quyidagicha taqoslash mumkin:

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'qitishning maqsadi:

- O'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirish, badiiy tafakkurni yuksaltirish, estetik va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallash, ulardan kundalik hayotida foydalanishga o'rgatishdan iborat.

- Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tasviriy san'at fanini o'qitishning asosiy vazifalari:

- tasviriy va amaliy san'at asarlarini, badiiy hunarmandchilikni, me'morchilik va dizayn san'atiga oid tarixiy namunalar hamda zamonaviy san'at asarlarini tahlil qilishga va amaliy faoliyatida qo'llashga o'rgatish;

- naturaning xarakterli jihatlarini ko'ra olishga, tahlil qilishga va tasvir yoki haykalni ishlash bosqichlarini ketma-ketlikda to'g'ri bajara olishga o'rgatish;

- texnika va texnologiyalarning takomillashib borishi asosida fanlar integratsiyasini hisobga olgan holda to'g'ri va ongli kasb tanlashga yo'naltirish;

- tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat.

1-4 sinflarda: Tasviriy san'at oid: [6]

— tasviriy san'at va unga oid ayrim iboralarni bilish;

— asosiy ranglarni farqlay olish;

— badiiy materiallar, asboblari va jihozlarni farqlay olish;

— rasm ishlash bosqichlarini bilish;

— naqshlar va ularning xususiyatini bilish;

— bo'yoqni o'z o'rnida ishlata olish;

— tabiat manzaralarini kuzatish va tasvirlay olish;

— buyumlar yasash, ularni bezata olish;

— turli ranglarni hosil qila olish;

— badiiy tasvirning jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilish;

5-7 sinflarda: Tasviriy san'at:

O'quvchilar tasviriy san'atga oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

— tasviriy san'atning kishilar hayotidagi ahamiyatini tasavvur qilish;

— tasviriy, dekorativ-amaliy, me'morchilik san'atida ishlatiladigan asosiy atama va tushunchalarni hamda ularning ma'nosini bilish;

— miniatyura san'ati haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lish;

— tasviriy san'atning nazariy asoslarini bilish va ularga amalda rioya qila olish;

— tasviriy san'at asarlarining ifodalilik vositalari (chiziq, siluet, rang, ritm, simmetriya, assimetriya, kompozitsiya)ni bilish va ularni amalda qo'llay olish;

— tasviriy san'atning asosiy tur va janrlarini bilish;

— o'zbek xalq amaliy san'atining turlari va uning mashhur ustalarini bilish;

— tasviriy san'atda ijod qiluvchi eng mashhur o'zbek va chet el rassomlarining hayoti va ijodini, ularning ayrim asarlarini bilish;

— O'zbekiston va chet el mamlakatlarining eng mashhur me'morchilik asarlarini bilish;

— 15 — 20 rang nomlarini ayta olish;

— tasviriy va amaliy san'at asarlarini erkin o'qiy olish;

— naqshlar bilan bog'liq badiiy bezak ishlarini erkin bajara olish;

- qush, hayvon, odamni asliga o'xshatib rasmi va haykalini tasvirlay olish;
- rasm, naqsh, haykal, qurish-yasash ishlarini bajarganda turli material va uslublardan foydalana olish;
- afsonaviy mavzularda rasm va haykallar ishlaganda ularni fantaziya asosida tasvirlay olish;
- tasvirlar ishlaganda o'zbek san'atining milliy badiiy an'analaridan maqsadga muvofiq foydalana olish;
- tasviriy ishlarni bajarganda texnika xavfsizligi va gigiyena qoidalariga rioya qila olish.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishning asosiy maqsadi sifatida:

O'quvchilarning hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatda ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, murakkab bo'lmagan texnik chizmalarni bajarishga, o'qishga va o'z fikrini grafik tasvirlar vositasida ifoda etishga o'rgatishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida chizmachilik fanini o'qitishning asosiy vazifasi:

chizmalar chizish va chizmani o'qish qoidalariga amal qilish, grafik tafakkurini - hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish;

- texnik ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish;
- chizmachilikda qo'llaniladigan termin va tushunchalardan, sodda elektron dasturlardan amaliyotda qo'llashga o'rgatish;
- texnika va texnologiyalarning takomillashib borishini hisobga olgan holda ongli ravishda kasb tanlashga yo'naltirish;
- chizmachilik ish qurollaridan to'g'ri foydalanish va chizmani ketma-ketlikda to'g'ri bajarishda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat.

8-9 sinflarda - chizmachilik fani:

O'quvchilar chizmachilikka oid quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarni egallashlari shart:

- to'g'ri burchakli proyeksiyalash asoslarini va sodda aksanometrik tasvirlarni yasash usullari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;
- chizmalarni bajarishning o'rganilgan usullarini va asosiy tutashmalarni yasash usullarini bilish;
- chizmachilik asboblari ratsional foydalana olish;
- buyumlarning shaklini asl ko'rinishiga hamda ularning chizmalariga qarab tahlil qila olish;
- tasvirlarning grafik tarkibini tahlil qila olish;
- sodda buyumlarning chizmasi, eskizi va yaqqol tasvirlarini o'qiy olish va bajarish;
- chizmalarda kesimlar va qirqimlarni bajarish hamda belgilashning asosiy qoidalarini bilish;

- o'yima naqsh solishning shartli tasvirlari va belgilanishini bilish;
- yig'ish va qurilish chizmalarini bajarish xususiyatlari to'g'risida tushunchaga ega bo'lish;
- detallarning asosiy birikmalari, chizmalarini chiza olish;
- oddiy qurilish chizmalarini o'qiy olish.

Shu o'rinda Finlandiya ta'lim sistemasida keltirilgan talablar quyidagicha ekanligini ko'rishimiz mumkin:

Tasviriy san'at bo'yicha umumiy o'quv dasturining maqsadi tasviriy san'at vositalari orqali o'quvchilarning o'sishi, o'zini o'zi bilishi, o'ziga xosligi va madaniy kompetentsiyasini shakllantirishni qo'llab – quvvatlashdir. O'qitish o'quvchini vizual madaniyatning faol ishtirokchisi, shuningdek jamiyatning ijodiy va mas'uliyatli a'zosi sifatida his qiladi. Sinflar vizual kuzatish, fikrlash, ifodalash, talqin qilish va baholash ko'nikmalarini rivojlantiradi va yangi narsalarni o'rganish uchun sharoit yaratadi.

Ta'lim o'quvchilarning o'ziga xos tasviriy madaniyati, tasviriy san'ati va boshqa vizual madaniyati o'rtasida aloqalarni o'rnatadi. Tadqiqotlar vizual madaniyatning uzluksiz o'zgarishi va ochiq chegaralarini ko'rib chiqadi. O'quvchilarga ular uchun muhim bo'lgan mazmun, mavzular va ifoda vositalariga chuqurroq sho'ng'ish imkoniyati taklif etiladi. O'quvchilar tajribasi dunyosiga yo'naltirilgan yondashuv orqali o'rganish uchun asos yaratiladi, bu esa darsdan tushuncha va quvonchni uyg'otadi. O'quvchi tasviriy san'atdan zavqlanib, o'z va boshqalarning badiiy asarlarini qadrlashga da'vat etiladi.

O'quvchi o'qiyotganda tasviriy san'at va boshqa vizual madaniyatni turli nuqtai nazardan talqin qilish va baholashni o'rganadi. O'qitish sizni san'at va ilm-fan aloqalari haqida o'ylashga va ularda yangi g'oyalarni topishga undaydi. O'quvchilar san'at usullarini hamkorlik, o'zaro ta'sir, ishtirok etish va ta'sir o'tkazish vositasi sifatida ishlatishga da'vat etiladi. Trening o'quvchining san'at bilan shaxsiy munosabatlarini rivojlantirish va hayot davomida tasviriy san'atga intilish uchun zamin yaratadi.

Tasviriy san'atni o'qitishning vazifasi o'quvchilarni madaniy rang-barang voqelikni san'at vositalari orqali o'rganish va ifodalashga yo'naltirishdir. Tasvirlarni yaratish va talqin qilish orqali o'quvchilarning shaxsiyatini shakllantirish, madaniy kompetentsiya va jamoa tuyg'usi mustahkamlanadi. Talabalarning shaxsiy tajribalari, tasavvurlari va tajribalari o'qitish uchun asos yaratadi. Tasviriy san'at ta'limi san'at hodisalarini, atrof-muhitni va boshqa tasviriy madaniyatni tushunish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilarga voqelikni qadrlash va unga ta'sir qilish usullari taklif etiladi. Madaniy meros haqidagi bilimlarni mustahkamlash orqali an'analarni yetkazish va yangilash qo'llab-quvvatlanadi. O'qitish o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi va ularni o'z yashash muhiti va jamiyatiga ta'sir o'tkazishga undaydi. Tasviriy san'atni o'qitishda talabalarning mahalliy va global agentligi uchun poydevor yaratiladi.

San'atning mehnatga xos xususiyati tajribaviy, ko'p hissiy va funksional o'rganishga yordam beradi. Talabalar tasviriy san'at va boshqa tasviriy madaniyatni

tarixiy va madaniy nuqtai nazardan o'rganadilar. O'qitishda biz san'at vazifalari haqida turli xil qarashlar bilan tanishamiz. Talabalar turli xil vositalar, materiallar, texnologiyalar va ifoda vositalaridan foydalanishga yo'naltiriladi. O'qitish vizual va boshqa ma'lumotlarni ishlab chiqarish va taqdim etish usullaridan foydalangan holda ko'p savodxonlikni rivojlantirishni rag'batlantiradi. O'quvchilarga maktabdan tashqari boshqa o'qituvchilar va aktyorlar bilan hamkorlikda ko'p tarmoqli ta'lim bo'linmalari uchun imkoniyatlar taklif etiladi. O'qitish jarayonida muzeylar va boshqa madaniy joylar o'rganiladi, shuningdek, tasviriy san'atning sevimli mashg'ulotlari imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

1-6-sinflarda tasviriy san'at fanining vazifalari: [7]

1-6-sinflarda o'quvchilarning tasviriy san'at va boshqa tasviriy madaniyat bilan shaxsiy munosabati uchun asos yaratiladi. Ekspressiv qobiliyat va estetik qobiliyatlarning rivojlanishi turli hislar va butun tananing hamkorligi bilan ta'minlanadi. O'quvchilarga aqliy obrazlar, tasviriy san'at tushunchalari va tasviriy ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishga yo'naltiriladi. O'qitishda funktsionallik va o'yinchanlik qo'llaniladi. Talabalar uzoq muddatli san'atni o'rganish uchun rag'batlantiriladi. Tasvirlarni ishlab chiqarish va talqin qilish ham axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va onlayn muhitlar yordamida amalga oshiriladi. O'qitish birgalikda ishlashga, tajriba almashishga, vizual ish bo'yicha fikr-mulohazalarni qabul qilishga va berishga undaydi.

1-6-sinflarda tasviriy san'atni o'rganish muhiti va ish usullari bilan bog'liq maqsadlar - materiallar, texnologiyalar va ifoda vositalaridan ko'p qirrali foydalanish va ularni ijodiy qo'llash imkonini beradigan o'quv muhiti va ish usullarini ta'minlash. O'qitish holatlarida faol tajriba va amaliyotni rag'batlantiradigan muhit yaratiladi. Pedagogik echimlar ko'p hissiy kuzatish, uzoq muddatli ishlash va kashfiyot va maqsadga yo'naltirilgan san'atni o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. O'qitish vizual ifodalashning individual ehtiyojlarini hisobga oladi va yakka va guruhlarda to'g'ri ishlash imkonini beradi. Maqsad maktabda ham, maktabdan tashqari muhitda ham o'rganish va o'zaro munosabatni rag'batlantiradigan operatsion madaniyatni yaratishdir. 1-6-sinflar o'yin tajribalarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni va fanlararo faoliyatni rag'batlantiradi. Maktab muhitiga qo'shimcha ravishda, o'qitish holatlari turli xil qurilgan muhitlarda, tabiiy muhitda va onlayn muhitda amalga oshiriladi.

Arxitektura bo'yicha umumiy o'quv dasturining maqsadi o'quvchining umr bo'yi arxitektura bilan aloqasini mustahkamlash va shaxsiy ifoda va talqin qilish uchun sharoit yaratishdir. O'quvchilarning tajribasi, g'oyalari, tasavvurlari va quvonchi ko'p sensorli va tajribaga asoslangan o'rganish uchun asos yaratadi.

Arxitektura kosmosning eksperimental san'ati va miqyosi alohida ob'ektlardan katta ob'ektlarga qadar bo'lgan hamma joyda mavjud bo'lgan qurilgan muhit sifatida qaraladi. O'qitishda fanlararo yondashuv qo'llaniladi va san'atning boshqa sohalaridan arxitekturani o'rganishga yondashuvlar qo'llaniladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. The role and content of technology in the education system . Modern views and research – 2021 International scientific and practical Conference ISBN 978-1-83853-487-5.
2. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. Using the Corel Draw computer program to develop students' creative abilities through drawing. Multidiscipline proceedings of digital fashion conference-2022. ISSN 2466-0744 Republic of Korea, Seoul.
3. Fakhriddinov M. Opportunities and prospects for using the Auto cad program in the education system. // Problems of increasing the innovative professional training of future primary school teachers. Collection of scientific articles. - Samarkand: Sam SU, 2019. Pages 152-155.
4. <https://eperusteet.opintopolku.fi/#/en/opetussuunnitelma/3207414/perusopetus%2Foppiaineet%2F3597862/oppiaineet/3594289>
5. <https://www.gazeta.uz/oz/2022/11/08/finland-education>
6. <https://lex.uz/acts/-316337>
7. <https://packpdf.com/edu/extra/12906-tasviriy-sanat-chizmachilik-fanidan-dts-talablari>